



TEKNOLOGIYASIZ TARAQQIYOT VA MILLATLARNING BIRDAMLIGI

TOSHPULATOV BAHROM SUNNATILLO O'G'LI,

STARS International Univeristy talabasi

ILMIY RAHBAR: ABDULAZIZOVA

BARNOXON BAXTIYOR QIZI,

STARS International Univeristy o'qituvchisi

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp111-115>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tenglik, birlikda adolatli g'oyalarni ilgari surgan va xalqlarni birdamlikda tutgan Amir Temur yoritib berilgan. O'z zamonasidan ilgari ketgan hamda hozirgi kundagi dardlar qiroli deb atalgan COVID_19 kabi kasalliklari bilan kurashishga asrlar oldin karantin qoidalarini o'ylab topgan Ibn Sino merosi tahlil qilingan. Shuningdek, texnika va texnologiyasiz, ilmga boshqacha yondashuv orqali 70dan ortiq tilni mukkamal darajada rganib, dunyo falsafasiga ulkan hisasini qo'shgan Farobiy kabi yulduzning qirralari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Samarqanddagi konferensiya, Jo'ji Ulusi, Oltin O'rda, Rui Gonsales de Klavixo, Pernandinyo, Mir Said Baraka

Biz buyuk davlatmiz, bizning tariximiz buyuk, millat-qardoshlar bir tan-u bir jonmiz. Yer yuzida davrlarlar, millatlar ko'p lekin bularning hech birining tarixi bizning tarimizdan buyuk emas.

"Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX - XII va XIV - XV asrlarda bamisoli po'rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbayi hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan Sharq uyg'onish davri - Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan"(1)

Amir Temur - dunyodagi ko'plab davlatlarni birlashtirgan, ko'plab millatlarni elatlarni birlikda, ahillikda yashashga undagan va erishgan o'rta asrlarning eng buyuk podshosi. Dunyo bo'yicha Amir Temurni ko'plab insonlar "Sohibqiron" nomi bilan biladi.."SOHIBQIRON"- "arabcha" tildan olingab bo'lib "saodatli, zafarli g'olib" degan ma'noni anglatadi. Amir Temur bobomiz o'rta asrlarda tuzgan davlatining chegaralanishi: "Xuroson, Jurjon, Mozondaron, Seyiston(MarkaziyXitoy) G'arbiy Eron, Ozorbayjon, Iroq, Armaniston(Markaziy Tabriz), Fors, Afg'oniston va Shimoliy Hindistonning markazigacha". Ko'rib turganingizdek hozirgi kunda hech kim, hech qaysi davlat bu qadar katta hududlarni va millatlarni birlashtira olmaydi. Amir Temur o'zgacha siyosat olib borish, jang qilishda ham tengsiz bo'lgan. Raqiblarini shu kungacha qo'llanilmagan usullar bilar nochor ahvolga solib qo'ygan. Shu boisdan bizning ajdodimizning nomi 21 yoshdayoq butun dunyoga ovoza bo'lgan. Amir Temur davrida kuchli davlatlardan biri bo'lgan Balx xukumdori Amir Husayn Amir Temurning ravnaq topayotgani va muvoffaqqiyatga erishayotganiga hasad

ko'zi bilan qaraydi va Amir Temur bilan ikki hukmdor o'rtasida nizo kelib chiqadi. Shu urushga Amir Temur safarbarlik qilayotgan vaqtda o'sha davrning buyuk faylasuflaridan biri Mir Said Baraka Amir Temur do'stlari safiga qo'shiladi va "bayroq bilan nog'ora" sovg'a qiladi. "Bayroq va nog'ora" buyuklikning ramzi sanalgan. Rui Gonsales de Klavixo Ispanyaning Madrid shahridan bo'lib Amir Temur huzuriga bir necha bor tashrif buyurgan. Amir Temur haqidagi ko'plab ma'lumotlarni Klavixoning asarlaridan topsak bo'ladi. Perondenyoning "Skifalikk Temurnning ulug'vorligi", Pero Meksikaning "Buyuk Temur tarixi", Xristofor Morloning "Buyuk Temur" nomli asarlar chiqarilgan.

".....bunday shaxning dunyoga kelishi davrning, zamonning taqazosi, *Chig'atoy ulus* zulmi, mayda feodallarining vahshiyona ezishi, mo'g'ul xonlari, *Oltin O'rda* bekliklarining to'xtovsiz Movoronnahirga yurishlari azobl原因gan, xonavayron bo'lgan, 150 yil davomida chet el hukumronligidan tinkasi qurigan mamlakatning, xalqning mustaqillika erishishi talab edi. Bu tarixiy zaruriyat Temurda, uning lashkarboshiligi ravshan ko'rindi. Temur davlat arbobi sifatida ma'lum darajada bu ehtiyojni o'zida aks ettirdi, ya'ni Movorounnahrda mustaqil markazlashgan davlat tuzdi, mamlakat ehtiyojlariga javob berdi"(2)

Klavixoning aytishicha: "Biz Sohirqiron davlatiga tashrif buyurdik shu vaqtda Sohirqiron o'z nabiralaridan biriga atab inshoot barpo etayotgan edi. Men lol qolgan voqea shundan iborat ediki: "Amir Temur binoni qurishda ishlayotdan barcha ishchilar ustidan go'sht va oltin tangalar sochmoqda edi. Sohirqiron bu ishning ma'nosini so'raganimda: Sohirqiron "ishchilar mendan rozi bo'lishi va binoning menga tez fursatda qurilishi va sifatli bo'lishi lozim, men ishchilarga zulm orqali qildirsam ham bo'lar edi, lekin mening inshootlarim bu qadar yaxshi chiqmas va yaxshi chiqsa ham ishchilar mendan rozi bo'lmas edi" shu vaqtda Sohirqironning nomi va davlati butun dunyoga mashhur bo'lganini anglab yetdim".

Perondenyoning asarlari "Biz Movorounnahr va Xurosonga tashrif buyurganimizda biz davlat rahbari bilan uchrashuvimiz qiyin bo'ldi. Elchilik kunlarining oxirgi damlarida biz Sohirqiron bilan ko'rishishga erishdik, shunda men Sohirqironga savol berdim: "Buyuk davlatning buyuk podshohi bilan ko'rishish bunchalik qiyin deb bo'lamagan edi" deganimda Sohirqiron shu vaqt "Mening davlatim yoki inshootlarim yoqmadimi" dedi, men "bunchalar go'zal va bu qadar tartibli davlat ko'rmaganman" dedim. Sohirqiron "Mening buyukligim ham shunda mening qudratimga shubha bilan qarasang men qurdirgan inshootlarga boq". Shunda men Temurning niyatini tushunib yetdim: Temur davlatiga kelgan elchilarga birinchi davlatini, inshootlari va qonunlarini adolatli ekanligini ko'rsatib, keyin o'z huzuriga chaqirar ekan.

ABU NASR FAROBIY

Riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik, adabiyot bu fanlarni davom etirsam tugamasligi aniq. Bu buyuk bobomiz dunyoni ilm bilan lol qoldirgan. Dunyodagi 70dan ortiq tilni bilgan. Farobiy yunon falsafani o'qigan va qiziqish bildirgan. Yunon adabiyotlarni o'z tillariga tarjima qilgan. Sharq, Yevropa va butun dunyo bo'yicha sezilarli tasir o'tkazgan. Ilm yo'lida izlanishda bo'lganlar, shunaqa maqsada Farobiy kech tushgan bir saroyga mehmonlikka kiradi va orqa tomonda o'tiradi.

Shu vaqtda Farobiyning donishmandligini bilgan odamlar podshohga saroyga Farobiy tashrif buyurganini aytgan. Podshoh Farobiyni yoniga chaqiradi va Farobiyga aytadi: “Sening nomingni men eshitganman shu qadar ilmi bo‘lsang, meni lol qoldirsang sening tilagan tilagingni bajo keltiraman, Farobiy sozandalardan nayni olib chalgan ekan shu vaqt hamma uyuquga ketib, keyin Farobiy nayni teskari chalgan ekan hamma uyg‘onib, raqsga tushibdi va Farobiy ohistalik bilan saroyni tark etibdi”.(3)

Podsho Farobiyni bu qadar ustamonligi, bilimliligi, buyukligidan lol qolib Farobiyning nomi butun dunyoga yoyilib ketibdi.

Farobiy juda bilimli odam bo‘lgan. Yunon olimi, millodan avvalgi davrda yashagan Arastu. Arastu “Metafizikaga sharh” asarini yozgan. Bu asarni Farobiygacha hech kim tushunmagan Farobiy Arastuning asarini takror-takror o‘qib tushungandan keyin bu asarni bir marta o‘qib tushunish balki o‘qimagan odamlar o‘qisa tushunmasligini bilib qayta “Arastuning metafizikasiga sharh” asarini yozadi va nafaqat o‘zining balki Arastuning ham buyuk olimligiga dunyoni lol qoldiradi. Farobiy sharqda “ARESTOTEL” deb shuhrat topgan. Farobiy “Muallim us-soniy”, “Sharq Arastusi” deb nom qozongan.(4)

Muttaffakir qoldirgan meros faqat Sharq mamlakatlariga emas, balki Yevropada ham tarqalib ijtimoiy-falsafiy fikr tarraqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. U O‘rta asrda mukammal hisoblangan tasnifni yaratdi. Al Farobiy ko‘p qirrali ilmiy tadqiqotlar natijasi o‘rnida “Fanlar tasnifi haqida” risolasini aytish mumkin. Unda o‘z davrining barcha ilmlari qat’iy tartibda sanalib, har bir fan ta’rifi o‘rganib chiqilgan. Al Farobiy insoniyatning bilimga ega bo‘lish mohiyatiga oydinlik kiritgan. Mohiyatni anglash uchun uni his qilishning o‘zi yetarli emas. Buni faqat aql yordamida erishish mumkin. (“Himmatli shahar aholisining nuqtayi nazari haqida risola” - Al Farobiyning eng yetuk asarlaridan biri, 948 -yil Misrda yozilgan).

Farobiy o‘z davrining buyuk olim sifatida mashhur bo‘lgan. Sharq xalqlari u haqida turli hikoya, rivoyatlar vujudga kelgan. O‘rta asr olimlaridan Ibn Xallikon, Ibn Qiftiy, Ibn Abi Usabi’a, Bayhaqiylar o‘z asarlarida Farobiy ijodini o‘rganib, unning g‘oyalarini rivojlantirgan.(5)

Ibn Sino

17 yoshda olimlik darajasiga yetishgan, 450dan ortiq asarlar yozgan - Ibn Sino jahonda: “Avetsina”, Sharqda esa “Shayx - ul Rais” nomi bilan shuhrat topgan. O‘rta osiyolik qomusiy olim, (boshqa manbalarda buxorolik deb yuritiladi) tabib va faylasuf deb yuritilgan. 10 yoshga yetganda Ibn Sino Qur’onni to‘la o‘zlashtiradi. Jahon tibbiyotining o‘zagini yaratgan shaxs, umri davomida ming xil dorivor o‘simliklarni kashf qilgan. 5 jildidan iborat “Al-Qonun Fit-Tib” asarini yozadi. Bu asar hozirgi kunda ham tabobatning asosini tashkil qilmoqda. “Al-Qonun Fit-Tib” asari XII asirda yo‘q lotinchaga tarjima qilingan. Avetsina nomi bilan mashhur bo‘lgan olimning Fransiya, Avstraliya, Belgiya, Turkiya, Eron, Turkmaniston va Tojikiston, shunga o‘xshagan bir nechta davlatlarda haykallari qad roslagan.

“O‘rta Osiyoga 10-13- asrlarda **vabo** ipedemiyasi tarqaldi va bu kassalik ko‘plab insonlarni bevaqt olamdan olib ketishni boshladi, shunda ko‘plab insonlar Ibn Sino yoniga kelib maslahat so‘ragan. Ibn Sino: “bu sharoitda biz pandemiya shartlariga va qoidalariga rioya qilishimiz, uydan chiqmaslik, mehmonga, juma namozlariga vaqtinchalik bormasligingizni aytaman, shu holatda bu kassalikka qarshi kurash olib borishimiz mumkin” ko‘p insonlar bu fikrlarni ma’qul ko‘rishmaydi va bu gaplarga

rioya qilishmaydi, ahvol yanada og'irlashadi va yengilmas biror dori topilmagan davoni shu tariqa birgalikda yengishadi va Ibn Sino buyuk tabib va olim ekanligiga hamma ishonadi". Ibn Sino tibbiyot bilimlarini oshirgan va doimo ilim izlagan shaxs bo'lgan, Ibn Sino saroy kutubxonasiga kirmoqchi bo'ladi, lekin bu davrda Ibn Sinoni saroy kutubxonasiga kiritishmaydi chunki kirishi uchun podsho yorlig'i kerak edi. Shu vaqtda davlatni boshqarib turgan shaxs – Nuh ibn Mansur chalingan dardni ko'plab tabiblar da'volay olmaydilar. Bu vaqtda saroy amaldorlari Ibn Sino haqida eshitib qoladi va ul kishini qidira boshlaydilar. Ibn Sino Nuh ibn Mansurni davolaydi va shu vaqt Ibn Sino saroy kutubxonasiga kirishga ruxsat so'raydi, Nuh ibn Mansur bunga rozilik beradi. Nuh ib Mansur Ibn Sinoni kutubxonaga kirishiga rozilik so'ragani hayratga solib qo'ygan. Uning o'ylashicha, boylik yoki bir qancha yer so'rashini kutgan vaqtda u bo'lsa kutubxonaga kirish uchun ruxsat so'ragan. Ibn Sino bu qadar ilmga chanqoqligidan Nuh ibn Mansur lol qoladi. Ibn Sino faqat tabobatga emas ilm-fanning 29 sohasini rivojlantirish uchun o'z hissasini yetarlicha qo'shgan.

Abu ali ibn Sino tavvaludining 1040 yilligi munosabati bilan "Abu Ali ibn Sino - O'zbekiston faxri va Jahon mulki "xalqaro ilm ma'rifiy onlayn anjuman bo'lib o'tdi. Anjumanga Germaniya, Belgiya, Fransiya, Isroil, Turkiya va Hindiston davlatlari ishtirok etishdi. Anjumanda so'zga chiqqan olimlar Ibn Sinoning innavatsion g'oyalari, tibbiyot, falsafa, xalq tabobatiga axloqiy va tarbiyaviy jihatdan qarashlari to'g'risida so'zga chiqishdi. Xorijlik mutaxassislar esa COVID19 ga qarshi kurashishda Ibn Sino o'g'itlari, Yevropada Avetsina ruhi ta'sirida, Hindistonda Ibn Sino merosini o'rganish borasida amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar haqida ma'lumot bergan

"Qadimiy O'zbekiston - ya'ni Movarounnahr diyori islom dunyosining yuksak madanyati va sivilizatsiyasiga, rivojiga unutilmas hissalarini qo'shgan alloma va mutafakkirlar yurti"

Xulosa

Yuqorida sizlarga men Amir Temur, Abu Nasr Farobiy, Ibn sino haqida so'zlab o'tdim.

Amir Temur o'z davlatiga 1000dan ortiq millatlarni birlashtirgan bu o'rta asrlar XIV – XV asrlarda bo'lib o'tgan. Texnika tarraqiyoti, inson evalutsiyasidan keyingi yangi davrda 21-asrda yashayotgan bo'lsak. tarixan olib qaraganimizda bir urug'chilikdan tarqalgan hozirgi kunda bir-biri bilan urush olib borayotgan Rossiya va Ukraina urushini olsak. Bizning bag'rimiz keng yer juda katta, 7 milliard odamga yerni taqqoslasak, bu har bir odamga yerdan joy yetadi degani, bir-birimiz bilan urushni to'xtatib orada kim urush bo'lishini xohlayotgan bo'lsa, o'shalarni jazolasak yaxshi bo'lmasmidi. Texnika – texnologiya rivojlanmay turib qancha yutuqlar dunyoga tanilgan, buyuklar va 100dan ko'p davlatlarni birlikda yashashga va odillik, tenglik uchun kurashga qancha odshohlarni eshitganmiz. Hozir biz, tariximizdagi ajdodlarimizdan ham ko'p imkoniyatlarga egamiz , shu imkoniyatlarni qo'ldan boy bermagan holatda ish tutishimiz kerak. Men yoshlarga murojaat qilar ekanman, ularga doim: "Biz buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishimiz, g'ururlanishimiz kerak" deb aytib qolardim. Ayni vaqt faqatgina g'ururlanishimiz emas, biz ham bobolarimiz kabi bo'lishga va bobolarimiz qoldirgan merosga o'z hissamizni qo'shishga harakat qilishimiz zarur. Biz STARS International Universityda ta'lim olmoqdamiz bu o'z sohasining yulduzlar unverstiteti, biz yulduz bo'lib porlashimiz va biz bobolarimiz

kabi o'z davlatimizni, unversititimizni dunyoga tanitishimiz lozim. Bir donishmand aytgan ekan: "hayotga keldingmi doim xarakatda bo'l, yugur agar yugurolmasang yur agar yurolmasang yo'rg'ala, agar qo'llaring ham oyoqlaring ham bo'lmasa tanang, ruhing, ongging bilan harakat qil, lekin harakardan to'xtama shunda biror natijaga erishishing aniq". Xuddi shundek biz doim harakatda bo'lsak aniq natijaga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2014- yil 15-16-may kunlari Samarqandagi Xalqaro konferensiyada O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov shunday nuqt so'zlagan.
2. I.M.Mo'monov so'lagan O'zbekiston tarixi 2017- yil
3. 3.Muhhammad Farobiy. Ilmlarning soyimi. Milliy egetim basimevi. Istambul. 1986, B.75
4. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. T. Yangi asr avlodi. 2003. S23,24.
5. "O'zbekiston Respublikasi Fan va Texnologiyalarni rivojlantirish qo'mitasi, Toshkent Islom universiteti, "Yangi nashr", 2011.
6. 6.O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miramonivich 2018-yil